XALQ DEPUTATLARI GULISTON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 3 - yanvar VI-47-1-9-130-K/22 Guliston shahar hokimligi

Guliston shahrida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2022 yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida.

O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Sirdaryo viloyati Guliston shahrida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2022 yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti tinglandi va bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, Xalq deputatlari Guliston Kengashi

Qaror qiladi.

2. Guliston shahar soliq inspeksiyasi (T.Elmurodov) O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Guliston shahrida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2022 yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Guliston shahar Moliya bo‘limi (B.Xatamov), Guliston shahar Davlat soliq inspeksiyasi (T.Elmurodov) larga:

- yer solig‘ining amaldagi stavkalariga 1,07 baravarga indeksatsiya qilinishi bo‘yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan Sirdaryo viloyat televideniyasi bilan hamkorlikda press klublar va

chiqishlarni amalga oshirish va televidiniya orqali ommaga taqdim etish;

- belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 1,0 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

- elektr uzatish liniyalari, umumdavlat aloqa liniyalari, umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar, elektr ta’minoti qurilmalari, magistral neft va gaz quvurlari hamda shunga o‘xshash inshootlar band etgan yerlar uchun o‘rtacha soliq stavkasi asosida yer uchastkasi joylashgan joydagi soliq organlari tomonidan belgilanishi va 5 yanvargacha soliq to‘lovchilar yetkazilishini ta’minlash;

- jismoniy shaxslarning yer maydonlari uchun olinadigan yer solig‘i (turistik zonalarda joylashgan yer uchastkalaridan tashqari) summasi 2021 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligini nazoratga olish;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

- yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashi deputatlari, Guliston shahar hokimligi matbuot xizmati (I.Zaxirov) va Guliston yangiliklari gazetasi bosh muxarriri (F.Toshmatov)lar mazkur loyihalarni ijtimoiy tarmoqlarda va shahar ro‘znomasida keng yoritib borilishi ta’minlansin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi N.Tursunov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **T.T.Dadabayev**

Халқ депутатлари Гулистон шаҳар
Кенгашининг
2022 йил 3 январдаги
VI-47-1-9-130-K/22-сон қарорига
1-илова

Sirdaryo viloyati Guliston shahar bo‘yicha 2022 yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llanilgan koeffsientlar
(Normativ huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga qo‘yish uchun)

T/r	Hudud nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffitsient miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun so‘mda)	Koeffitsient miqdori	Soliq summasi (1 kv.metr uchun so‘mda)
1	Ahillik MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
2	Navbahor MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
3	Yangi hayot MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
4	Shodlik MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
5	Do‘stlik MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
6	Bo‘ston MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
7	Istiqlol MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
8	Ulug‘obod MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
9	Namuna MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
10	Sayqal MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
11	Bog‘ishamol MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
12	Obod yurt MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
13	Taraqqiyot MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
14	Manaviyat MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
15	Madaniyat MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
16	Ulug‘ yo‘l MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0

17	Ibratli MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
18	Baxor MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
19	Yuksalish MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
20	Cohil MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
21	Baxt MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
22	Nihol MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
23	Nurafshon MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0
24	Buyuk kelajak MFY	1,3	28 600 000,0	1,0	205,0